FARG’ONA VILOYATI FARG’ONA SHAHAR HOKIMINING QARORI

2024 - yil 19 - iyun 203-11-169-Q/24 Farg‘ona shahar hokimligi

Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida shahardagi umumta’lim maktablariga hudud va mikrohududlarni biriktirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 5-bob, 39-bandiga asosan hamda Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining 2024-yil 7-maydagi 01-05/2-507-son murojaat xatini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6, 25-moddalariga muvofiq

Q A R O R Q I L A MA N:

1. Farg‘ona shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining 2024-yil 7-may kungi “Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida shahardagi har bir ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to‘g‘risida”gi 01-05/2-507-son murojaat xati inobatga olinsin.

2. Farg‘ona shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi umumta’lim maktablariga hudud va mikrohududlarni biriktirish jadvali ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Farg‘ona shahar hokimining o‘rinbosari Y.Yusupov, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Farg‘ona shahar bo‘limi (R.To‘raqulov), Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (N.Irgasheva), mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

har bir maktabga biriktirilgan mikrohudud sxemasini tuzish va mazkur sxemada mikrohududning aniq chegarasi, uning tarkibiga kirgan ko‘cha, tor va berk ko‘chalardagi barcha uylar, xonadonlarni qamrab olish vazifasi topshirilsin.

4. Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (N.Irgasheva):

shahar hududida yashovchi maktab yoshidagi bolalarni o‘qishga to‘liq jalb etish bo‘yicha ishchi guruh tashkil etsin;

har bir maktabga biriktirilgan mikrohudud sxemalarini barcha maktablarga yetkazish va joylardagi mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan ota-onalarga tegishli tushuntirish ishlarini olib borsin;

Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limida tashkil etilgan ishchi guruhning mas’ul xodimlari tomonidan qabul qilinadigan statistik jadvallar monitoringini olib borilishini nazorat qilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Farg‘ona shahar hokimining 2023-yil 4-iyuldagi 224-11-169-Q/23-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Farg‘ona shahar hokimining o‘rinbosari Y.Yusupov zimmasiga yuklansin.

Farg'ona shahar hokimi **V.Nazarov**

Farg‘ona shahar hokimining
2024-yil 19-iyundagi
203-11-169-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi umumta’lim maktablariga hudud va mikrohududlarni biriktirish

JADVALI





























